

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**JALILOV MUHAMMADALI ABDUMUTALIBOVICH**

**KASR TARTIBLI HOSILALI PARABOLIK HAMDA ARALASH**  
**TURDAGI TENGLAMALAR UCHUN MASALALAR**

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI**  
**bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**FARG‘ONA – 2024**

UDK: 517.95

**Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
физико – математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical –  
mathematical sciences**

**Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich**

Kasr tartibli hosilali parabolik hamda aralash turdagi tenglamalar uchun  
masalalar.....3

**Жалилов Мухаммадали Абдумуталибович**

Задачи для уравнений параболического и смешанного типов с производными  
дробного порядка.....21

**Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich**

Problems for equations of parabolic and mixed types with fractional  
derivatives.....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**JALILOV MUHAMMADALI ABDUMUTALIBOVICH**

**KASR TARTIBLI HOSILALI PARABOLIK HAMDA ARALASH**  
**TURDAGI TENGLAMALAR UCHUN MASALALAR**

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI**  
**bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B 2023.4.PhD/FM947 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kadirkulov Baxtiyar Jalilovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xasanov Anvardjan**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Safarov Jurabek Shakarovich**  
fizika-matematika fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_»\_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.:(+99873) 244-44-02, faks: (+99873) 244-44-93, ye-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.:(+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 «\_\_»\_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.K.Urinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**I.U.Xaydarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

**Y.P.Apakov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda olib borilayotgan ko‘plab amaliy masalalarni tatqiq etish differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni hal qilishga olib kelinadi. Xususan, anomal diffuziya jarayonlarini, yerosti suvlari oqimining harakatini, kompozitsion materiallarning xususiyatlari bilan bog‘liq kimyoviy va mexanik jarayonlarning matematik modeli kasr tartibli differensial tenglamalarga keltiriladi. Bundan ko‘rinadiki, kasr tartibli differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish yuqoridagi amaliy masalalarning tahlillari va xususiyatlari to‘g‘risida to‘liq tasavvurni ta‘minlagan holda kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyoda kasr tartibli differensial tenglamalar uchun turli boshlang‘ich va chegaraviy masalalarning yechilishini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, diffuziya hamda nolokal va yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun qo‘yilgan turli nolokal chegaraviy masalalar, shu jumladan, Bitsadze-Samarskiy turidagi nolokal masalalarning yechilish usullarini o‘rganishga, shuningdek, masala yechimining mavjudligi va yagonaligini tadqiq etishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqotlar yuzasidan keng qamrovli izlanishlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, matematika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari, xususan, differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik sistemalar va optimal boshqaruv, amaliy matematika va matematik modellashtirish, matematik analiz va funksiyalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, algebra va geometriya bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, matematiklarning asosiy vazifalari va faoliyati sifatida belgilangan<sup>1</sup>. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bugungi kunga qadar ushbu sohalar bo‘yicha muhim ilmiy natijalar qo‘lga kiritildi. Jumladan, differensial tenglamalar yo‘nalishida diffuziya hamda nolokal va yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalar hamda Bitsadze-Samarskiy turidagi nolokal masalalarning yechimlarining aniq ko‘rinishini topish hamda yagonaligini isbotlash alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta‘limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiynomidagi

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 292-son qarori

Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Kasr tartibli hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar Furye usuli yordamida S.A.Malik, O.X.Masaeva, G.Li, D.Zhang, X.Jia, M.Yamamoto, F.Al-Musalhi, Al-Salti, S.Summaya, M.A.Salmanlar tomonidan, integral almashtirishlar va Grin funksiyasi usuli yordamida esa A.V.Psxu va O.M.Mamchuev, R.K.Saxena, O.X.Masaevalar tomonidan tadqiq qilingan. Laplas tenglamasi uchun kasr tartibli hosila qatnashgan chegaraviy shartli masalalarning bir qiymatli yechilishi M.A.Sadibekov, B.X.Turmetov, B.T.Torebek, S.Kerbal va M.Kiranelar tomonidan o'rganilgan.

Plazma nazariyasida elliptik turdagi xususiy hosilali differensial tenglama uchun yuzaga keladigan yangi turdagi nolokal chegaraviy masala A.V.Bitvadze va A.A.Samarskiy tomonidan qo'yilgan va o'rganilgan bo'lib, bugungi kunda bunday turdagi nolokal masalalarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Butun yoki kasr tartibli hosilali differensial tenglamalar uchun Bitsadze-Samarskiy turidagi masalalar K.U.Xubiev, V.Karachik, B.X.Turmetov, M.Ruzhansky, N.E.Tokmagambetov, B.T.Torebeklarning ishlarida, parabolik sistemalar uchun esa Y.A.Baderko, M.F.Cherepovalarning ishlarida tadqiq qilingan.

Yuqorida keltirilgan ishlarda asosan ikkinchi tartibli tenglamalar va ular uchun asosan klassik masalalar yoki Samarskiy-Ionkin turidagi nolokal masalalar o'rganilgan. Kasr tartibli tenglamalar uchun Bitsadze-Samarskiy shartli nolokal masalalar deyarli o'rganilmagan bo'lib, yuqori tartibli involyutsiyali tenglamalar uchun chegaraviy masalalar, shuningdek, Bitsadze-Samarskiy shartli yoki involyutsiyali spektral masalalar umuman o'rganilmagan. Ushbu dissertatsiya ishi differensial tenglamalar nazariyasining ushbu muhim masalalariga bag'ishlangan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Differensial tenglamalar va unga turdosh matematik sohalarning dolzarb muammolari" dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nolokal xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar qo'yish va o'rganish hamda ushbu masalalarni tadqiq etish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

kasr tartibli diffuziya tenglamasi hamda Kaputo hosilali ikkinchi tartibli aralash turdagi tenglamalar uchun to'g'ri va teskari nolokal masalalarni qo'yish va o'rganish;

ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy turidagi nolokal masalalarning spektral xossalarini o'rganish;

kasr tartibli hosilali yuqori tartibli aralash turdagi tenglamalar uchun to'g'ri va teskari nolokal masalalarni qo'yish va o'rganish;

buzilgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun manba funksiyasini topish bilan bog'liq teskari masalalarni qo'yish va o'rganish;

kasr tartibli hosila va involyutsiya qatnashgan to'rtinchi tartibli xususiy hosilali aralash turdagi tenglamalar uchun to'g'ri va teskari nolokal masalalarni qo'yish va o'rganish.

**Tadqiqotning obyekti** Kaputo, Hilfer turidagi kasr tartibli integro-differensial operatorlar va xususiy hosilali nolokal differensial tenglamalar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** kasr tartibli operatorlar va involyutsiya qatnashgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida differensial tenglamalar va matematik fizika, chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi, integral tenglamalar nazariyasi, Furrye hamda Grin funksiyasi nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Furrye usulidan foydalanib, kasr tartibli hosilalar qatnashgan diffuziya va aralash turdagi tenglamalar uchun nolokal shartli to'g'ri va teskari masalalar yechimlarining mavjudligi, yagonaligi va turg'unligiga doir teoremlar isbotlangan;

differensial tenglamalar nazariyasi usullaridan foydalanib, ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy shartli masalaning xos sonlari va mos o'zak funksiyalari topilgan hamda ularning to'laligi va Riss bazisni tashkil etishi differensial operator rezolventasini baholash orqali asoslangan;

Grin funksiyasi usuli hamda ekstremum prinsipi yordamida tur o'zgarish chizig'i xarakteristika bo'lmagan Kaputo ma'nosidagi kasr tartibli hosilani o'z ichiga oluvchi uchinchi tartibli aralash turdagi tenglama uchun chegaraviy masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan;

xos funksiyalarning to'laligidan foydalanib, Furrye usuli yordamida aralash turdagi to'rtinchi tartibli involyutsiya qatnashgan tenglamalar uchun chegaraviy masalalar yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun Bitsadze-Samarskiy turidagi nolokal masalalarni yechishda mos spektral masala o'zak funksiyalari sistemasining to'laligi va bazislik xossalarini tadqiq qilish usuli taklif qilinib, u chegaraviy masalalar yechimlarini tekis va absolyut yaqinlashuvchi qator ko'rinishida qurish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'z-o'ziga qo'shma to'rtinchi tartibli differensial tenglama uchun, involyutsiya

qatnashgan spektral masalani yechishni shu tenglama uchun involyutsiyasiz spektral masalani yechishga keltirish usuli ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Matematik isbotlar Furye usuli, chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi, integral tenglamalar va matematik analiz usullariga, shuningdek, matematik fikrlash va hisob-kitoblarning qat'iyiligiga asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ushbu ishda olingan ilmiy natijalar chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi, kasr tartibli differensial va integral tenglamalar nazariyasi hamda matematik fizikaning noklassik masalalarini o'rganishda asos sifatida foydalanish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining amaliy ahamiyati kasr tartibli xususiy hosilali tenglamalar bilan aniqlanuvchi ba'zi bir fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarning, jumladan, elektrokimyoning anomal diffuziya jarayonlarini, tuproqdagi molekulyar diffuziya, suyuqliklarning kuchli g'ovak muhitlarda harakati bilan bog'liq jarayonlarni matematik modellashtirishni qo'llanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kasr tartibli hosilali parabolik hamda aralash turdagi tenglamalar uchun masalalarni tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalar asosida:

kasr tartibli parabolik tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy turidagi teskari masalaning tadqiqot natijalari CFRG-23-02 raqamli fundamental loyihada kasr tartibli operator qatnashgan differensial tenglamalarni o'rganishda foydalanilgan (O'mon sultonligi, Fan va texnologiyalar milliy universitetining 2024-yil 23-apreldagi ma'lumotnomasi). Natijada, kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun teskari masalalarni tadqiq etish imkoniyati paydo bo'lgan;

involyutsiya qatnashgan to'rtinchi tartibli xususiy hosilali aralash turdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning aniq yechimlaridan AP 09259074 raqamli "Kasr tartibli differensial tenglamalar yechimlarini qurish usullari va chegaraviy va boshlang'ich chegaraviy masalalarining yechilishi muammolari" mavzusidagi fundamental loyihada aralash turdagi nolokal xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun teskari masalalarni o'rganishda foydalanilgan (Hoja Ahmad Yassaviy nomli xalqaro qozoq-turk universitetining 2024-yil 25-apreldagi №04/465 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, aralash turdagi nolokal xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun teskari masalalarni o'rganish imkoniyati paydo bo'lgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Dissertatsiyaning asosiy natijalari 13 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 31 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta ilmiy maqola,

jumladan 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, 5 tasi esa mahalliy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 118 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kaputo operatorini o'z ichiga olgan ikkinchi tartibli differensial tenglamalar uchun Bitsadze-Samarskiy turidagi masalalar**" deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo'lib, u ikkinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri to'rtburchakli sohalarda to'g'ri va teskari masalalar qo'yishga va o'rganishga bag'ishlangan.

1.1-paragrafda dissertatsiyaning asosiy natijalari bayoniga doir ba'zi-bir ma'lumotlar keltirilgan.

1.2-paragrafda tekislikdagi  $\Omega = \{(x, t) : 0 < x < 1, 0 < t < T\}$ ,  $T > 0$  sohada

$${}_c D_{0t}^\alpha u(x, t) = u_{xx}(x, t) + g(x) \quad (1)$$

tenglama uchun quyidagi masala qo'yilgan va tadqiq etilgan, bu yerda  ${}_c D_{0t}^\alpha$  -

$${}_c D_{0t}^\alpha \varphi(t) = I_{0t}^{1-\alpha} \varphi'(t) = \Gamma^{-1}(1-\alpha) \int_0^t (t-\tau)^{-\alpha} \varphi'(\tau) d\tau, t > 0, 0 < \alpha < 1 \quad (2)$$

formula bilan aniqlanadigan Kaputo ma'nosidagi kasr tartibli hosila.

**1-masala.** *Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi  $(u(x, t), g(x))$  funksiyalar juftligini topish talab etilsin:*

1)  $u, u_x \in C(\bar{\Omega})$ ,  ${}_c D_{0t}^\alpha u, u_{xx} \in C(\Omega)$ ,  $g(x) \in C[0, 1]$  ;

2)  $u(x, t)$  va  $g(x)$  funksiyalar  $\Omega$  sohada (1) tenglamani qanoatlantirsin;

3)  $u(x, t)$  funksiya  $u(x, 0) = \varphi(x)$ ,  $u(x, T) = \psi(x)$ ,  $0 \leq x \leq 1$ ,  $u(0, t) = 0$ ,

$u_x(1, t) = u_x(x_0, t)$ ,  $0 \leq t \leq T$  shartlarni qanoatlantirsin. Bu yerda  $\varphi(x), \psi(x)$  - berilgan funksiyalar,  $x_0$  - berilgan haqiqiy son,  $0 < x_0 < 1$ .

Quyidagi

$$-X''(x) = \lambda X(x), 0 < x < 1, \quad (3)$$

$$X(0) = 0, X'(1) = X'(x_0), 0 < x_0 < 1. \quad (4)$$

spektral masalaning o'zak funksiyalari sistemasining to'raligini o'rganamiz. Buning uchun  $D(L_0) = \{X(x) \in C^\infty[0,1]: X(0) = 0, X'(1) = X'(x_0)\}$  sohada  $L_0 X = -X''$  tenglik bilan aniqlangan  $L_0$  operatorini kiritib, uning  $L_2(0,1)$  norma bo'yicha yopilmasini (замыкание)  $L$  orqali belgilaylik.

Ushbu paragrafda quyidagi lemma va teoremlar isbotlangan:

**1-teorema.**  $L$  operatorning o'zak funksiyalari sistemasi  $L_2(0,1)$  fazoda to'la bo'ladi.

**1-natija.**  $x_0$  son  $(0,1)$  oraliqdan olingan ixtiyoriy irratsional son bo'lsin. U holda (3), (4) masalaning xos sonlari turlicha bo'lib, mos xos funksiyalar sistemasi  $L_2(0,1)$  fazoda to'la bo'ladi.

(3), (4) masala bilan bir qatorda unga qo'shma bo'lgan quyidagi

$$-Y''(x) = \lambda Y(x), \quad x \in (0, x_0) \cup (x_0, 1), \quad (5)$$

$$Y(0) = 0, \quad Y'(1) = 0, \quad Y'(x_0 + 0) = Y'(x_0 - 0), \quad Y(x_0 + 0) - Y(x_0 - 0) = Y(1) \quad (6)$$

masalani qaraymiz.

**2-natija.**  $x_0 - (0,1)$  oraliqdagi istalgan irratsional son bo'lsin. U holda (5), (6) masalaning o'zak funksiyalari sistemasi  $L_2(0,1)$  fazoda Riss bazisini tashkil etmaydi.

$x_0 = p/q - (0,1)$  oraliqdan olingan ratsional son bo'lib,  $q - p = 1$  bo'lsin. U holda (3), (4) va unga qo'shma (5), (6) masala

$$\lambda_0 = 0, \quad \lambda_{1n} = (2q\pi n / (q + p))^2, \quad n \neq k(q + p), \quad \lambda_{2n} = (2qn\pi)^2, \quad k, n \in \mathbb{N}$$

xos sonlar va ularga mos

$$X_0(x) = x, \quad X_{1n}(x) = \sin \sqrt{\lambda_{1n}} x, \quad X_{2n}(x) = \sin \sqrt{\lambda_{2n}} x, \quad \tilde{X}_{2n}(x) = x \cos \sqrt{\lambda_{2n}} x, \quad x \in [0, 1],$$

$$Y_0(x) = \begin{cases} 0, & x \in [0, x_0), \\ \frac{2}{1-x_0^2}, & x \in (x_0, 1], \end{cases} \quad Y_{1n}(x) = \begin{cases} 4 \sin \sqrt{\lambda_{1n}} x / (1+x_0), & x \in [0, x_0), \\ \frac{2 \cos \sqrt{\lambda_{1n}} (1-x)}{(1+x_0) \sin \sqrt{\lambda_{1n}}}, & x \in (x_0, 1], \end{cases}$$

$$Y_{2n}(x) = \begin{cases} 0, & x \in [0, x_0), \\ 4 \cos \sqrt{\lambda_{2n}} x / (1-x_0^2), & x \in (x_0, 1], \end{cases} \quad \tilde{Y}_{2n}(x) = \begin{cases} \frac{4 \sin \sqrt{\lambda_{2n}} x}{1+x_0}, & x \in [0, x_0), \\ \frac{4(1-x) \sin \sqrt{\lambda_{2n}} x}{1-x_0^2}, & x \in (x_0, 1] \end{cases}$$

o'zak funksiyalarga ega.

**1-lemma.**  $x_0 = p/q - (0,1)$  oraliqdan olingan ratsional son bo'lib,  $p$  va  $q$  natural sonlar hamda  $q - p = 1$  bo'lsin. U holda (3), (4) va (5), (6) masalalarning o'zak funksiyalari sistemasi  $L_2(0,1)$  fazoda Riss bazisini tashkil qiladi.

**2-teorema.** Agar 1-masalaning yechimi mavjud bo'lsa, u yagonadir.

**3-teorema.**  $\varphi(x), \psi(x)$  funksiyalar

$$\varphi(x), \psi(x) \in C^3[0,1], \quad \varphi^{IV}(x), \psi^{IV}(x) \in L_2(0,1), \quad \varphi(0) = 0, \quad \varphi''(0) = 0,$$

$\psi(0) = 0, \psi''(0) = 0, \varphi'(1) = \varphi'(x_0), \varphi'''(1) = \varphi'''(x_0), \psi'(1) = \psi'(x_0), \psi'''(1) = \psi'''(x_0)$  shartlarni qanoatlantirsin. U holda 1-masalaning yechimi mavjud.

$\Omega = \{(x, t) : 0 < x < 1, -a < t < b\}, a, b \in R^+$  – tekislikdagi to‘g‘ri to‘rtburchakli soha bo‘lib,  $\Omega_1 = \Omega \cap (t > 0), \Omega_2 = \Omega \cap (t < 0)$  bo‘lsin. 1.3-paragrafda  $\Omega$  sohada

$$0 = \begin{cases} {}_c D_{0t}^\alpha u(x, t) - u_{xx}(x, t), t > 0, \\ u_t(x, t) - u_{xx}(x, t), t < 0 \end{cases} \quad (7)$$

tenglama uchun quyidagi nolokal masala tadqiq etilgan, bu yerda  ${}_c D_{0t}^\alpha, (0 < \alpha < 1)$  – (2) formula bilan aniqlangan Kaputo ma’nosidagi kasr tartibli hosila.

**2-masala.** Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi  $u(x, t)$  funksiyani topish talab etilsin:

1)  $u, u_x \in C(\bar{\Omega}_1), {}_c D_{0t}^\alpha u, u_{xx} \in C(\Omega_1), u \in C^1(\bar{\Omega}_2) \cap C_{x,t}^{2,2}(\Omega_2);$

2)  $\Omega_1 \cup \Omega_2$  sohada (7) tenglamani qanoatlantirsin;

3)  $u(0, t) = 0, u_x(1, t) = u_x(x_0, t), -a \leq t \leq b$  va  $u(x, -a) = hu(x, b) + \varphi(x), 0 \leq x \leq 1$  nolokal shartlarni hamda

$$u(x, +0) = u(x, -0), \lim_{t \rightarrow +0} {}_c D_{0t}^\alpha u(x, t) = \lim_{t \rightarrow -0} u_t(x, t) \quad (8)$$

ulash shartlarini qanoatlantirsin, bu yerda  $\varphi(x)$  – berilgan funksiya,  $h \in R, x_0 = p/q \in (0, 1), p, q \in N.$

Ushbu paragrafda quyidagi lemma va teoremlar isbotlangan:

**4-teorema.** Agar

$$\Delta_{in} = \cos \sqrt{\lambda_{in}} a + \sqrt{\lambda_{in}} \sin \sqrt{\lambda_{in}} a - h E_\alpha(-\lambda_{in} b^\alpha) \neq 0, i = 1, 2, \Delta_0 = 1 - h \neq 0 \quad (9)$$

tengsizliklar o‘rinli bo‘lib,  $A_2$  masalaning yechimi mavjud bo‘lsa, u yagonadir,

bu yerda  $\lambda_{1n} = (2nq\pi / (p + q))^2, \lambda_{2n} = (2nq\pi)^2, n, k \in N, n \neq k(q + p).$

**2-lemma.**  $h \in R, h \neq 1, c, d \in N, EKUB(c, d) = 1, a = c(q + p) / 2d$  bo‘lsin. U holda yetarlicha katta  $n$  larda shunday musbat  $C_0$  o‘zgarmas soni topiladiki,

$$|\Delta_{in}| \geq C_0 > 0, i = 1, 2 \quad (10)$$

baho o‘rinli bo‘ladi.

**5-teorema.** Aytaylik,  $\varphi(x) \in C^5[0, 1], \varphi^{VI}(x) \in L_2(0, 1)$  bo‘lib,  $\varphi(x)$  funksiya

$\varphi(0) = 0, \varphi''(0) = 0, \varphi^{IV}(0) = 0, \varphi'(1) = \varphi'(x_0), \varphi'''(1) = \varphi'''(x_0), \varphi^V(1) = \varphi^V(x_0)$  shartlarni qanoatlantirsin hamda (9) va (10) shartlar bajarilsin. U holda 2-masalaning yechimi mavjud bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Kaputo va Hilfer operatorini o‘z ichiga olgan yuqori tartibli aralash turdagi tenglamalar uchun masalalar**” deb nomlangan ikkinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo‘lib, u 1.3 - paragrafda berilgan to‘g‘ri to‘rtburchakli sohada Kaputo va Hilfer integro-differensial operatori qatnashgan yuqori tartibli aralash tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni bayon qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan.

2.1-paragrafda kasr tartibli aralash turdagi

$$0 = \begin{cases} u_{xxxx}(x,t) + D^{\alpha,\gamma} u(x,t), & t > 0, \\ u_{xxxx}(x,t) + u_{tt}(x,t), & t < 0 \end{cases} \quad (11)$$

tenglama uchun quyidagi nolokal masala qo'yilgan va o'rganilgan,  $D^{\alpha,\gamma}$  – kasr tartibli Hilfer integro-differensial operatori bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$D_{at}^{\alpha,\gamma} \tau(t) = I_{at}^{\gamma(1-\alpha)} (I_{at}^{(1-\gamma)(1-\alpha)} \tau(t))', \quad 0 < \alpha \leq \gamma \leq 1. \quad (12)$$

**3-masala.** Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi  $u(x,t)$  funksiyani topish talab etilsin:

- 1)  $t^{1-\gamma} u \in C_{x,t}^{3,0}(\bar{\Omega}_1)$ ,  $t^{1-\gamma} D^{\alpha,\gamma} u \in C(\bar{\Omega}_1)$ ,  $u_{xxxx} \in C(\Omega_1)$ ,  $u \in C_{x,t}^{3,1}(\bar{\Omega}_2) \cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega_2)$ ;
- 2)  $\Omega_1 \cup \Omega_2$  sohada (11) tenglamani qanoatlantirsin;
- 3)  $u(0,t) = 0$ ,  $u(1,t) = 0$ ,  $u_{xx}(0,t) = 0$ ,  $u_{xx}(1,t) = 0$ ,  $t \in [-a,0] \cup (0,b]$  hamda  $u_t(x,-a) = D^{\alpha,\gamma} u(x,b) + \varphi(x)$ ,  $0 \leq x \leq 1$  chegaraviy shartlarni va

$$\lim_{t \rightarrow +0} I_{0t}^{1-\gamma} u(x,t) = \lim_{t \rightarrow -0} u(x,t), \quad \lim_{t \rightarrow +0} I_{0t}^{1-\alpha} \frac{d}{dt} I_{0t}^{1-\gamma} u(x,t) = \lim_{t \rightarrow -0} u_t(x,t) \quad (13)$$

ulash shartlarini qanoatlantirsin, bu yerda  $\varphi(x)$  – berilgan funksiya.

Ushbu paragrafda quyidagi lemma va teoremlar isbotlangan:

**3-lemma.**  $f(t) \in [0, \ell]$  kesmada uzluksiz funksiya bo'lsin. U holda

$$\begin{cases} D^{\alpha,\gamma} u(t) = \lambda u(t) + f(t), & t \in (0, \ell), \\ \lim_{t \rightarrow +0} (I_{0t}^{n-\gamma} u(t))^{(k)} = u_k, & k = 0, 1, \dots, n-1 \end{cases}$$

masalaning yechimi mavjud, yagona va  $t^{1-\gamma} D^{\alpha,\gamma} u(t) \in C[0, \ell]$  bo'lib, u

$$u(t) = \sum_{k=0}^{n-1} u_k t^{\gamma+k-n} E_{\alpha,\gamma+k+1-n}(\lambda t^\alpha) + \int_0^t (t-\tau)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(\lambda(t-\tau)^\alpha) f(\tau) d\tau$$

ko'rinishda bo'ladi, bunda  $u_k$  – berilgan o'zgarmas sonlar.

**6-teorema.** Agar

$$\Delta_n(a,b) = \sin \lambda_n^2 a - \lambda_n^2 \cos \lambda_n^2 a + \lambda_n^2 b^{\gamma-1} E_{\alpha,\gamma}(-\lambda_n^4 b^\alpha) \neq 0, \quad \lambda_n = \pi n, \quad n \in N \quad (14)$$

shart o'rinli bo'lib, 3-masalaning yechimi mavjud bo'lsa, u yagonadir.

**4-lemma.**  $a = p / (q\pi)$ ,  $p, q \in N$ ,  $E_{KUB}(p,q) = 1$ ,  $q$  – toq son bo'lsin. U holda ixtiyoriy fiksirlangan  $b > 0$  va yetarlicha katta  $n$  lar uchun, shunday musbat  $B_0$  o'zgarmas soni topiladiki,

$$|\Delta_n(a,b)| \geq B_0 n^2 > 0 \quad (15)$$

baho o'rinli bo'ladi.

**5-lemma.** (14) va (15) shartlar bajarilsin. U holda barcha  $n \in N$  lar uchun

$$t^{1-\gamma} |u_n^+(t)| \leq B_1 |\varphi_n| / n^4, \quad t^{1-\gamma} |D^{\alpha,\gamma} u_n^+(t)| \leq B_2 |\varphi_n|, \quad t \in [0, b],$$

$$|u_n^-(t)| \leq B_3 |\varphi_n| / n^2, \quad |(u_n^-(t))'| \leq B_4 |\varphi_n|, \quad (u_n^-(t))'' \leq B_5 n^2 |\varphi_n|, \quad t \in [-a, 0],$$

munosabatlar o'rinli, bu yerda  $B_k, k = \overline{1,5}$  – musbat o'zgarmas sonlar.

**7-teorema.** Aytaylik,  $\varphi(x)$  funksiya  $\varphi(x) \in C^2[0,1]$ ,  $\varphi^{(3)}(x) \in L_2(0,1)$ ,  $\varphi^{(2k)}(0) = 0$ ,  $\varphi^{(2k)}(1) = 0$ ,  $k = \overline{0,1}$  shartlarni qanoatlantirib, barcha  $n > n_0$  larda (15) tengsizlik bajarilsin. Bunda:

1) agar  $n = 1, 2, \dots, n_0$  lar uchun  $\Delta_n(a, b) \neq 0$  bo'lsa,  $u$  holda 3 - masala  $\Omega$  sohada yagona yechimga ega bo'lib, bu yechim

$$u(x, t) = \begin{cases} \sqrt{2} \sum_{n=1}^{\infty} u_n^+(t) \sin \lambda_n x, & (x, t) \in \Omega_1, \\ \sqrt{2} \sum_{n=1}^{\infty} u_n^-(t) \sin \lambda_n x, & (x, t) \in \Omega_2, \end{cases} \quad u_n^\pm(t) = \begin{cases} \frac{\varphi_n t^{\gamma-1} E_{\alpha, \gamma}(-\lambda_n^4 t^\alpha)}{\lambda_n^2 \Delta_n(a, b)}, & t > 0, \\ \frac{\varphi_n (\cos \lambda_n^2 t - \lambda_n^2 \sin \lambda_n^2 t)}{\lambda_n^2 \Delta_n(a, b)}, & t \leq 0 \end{cases}$$

qatorlar bilan aniqlanadi;

2) agar biror  $n = k_1, \dots, k_s$  lar uchun  $\Delta_n(a, b) = 0$  bo'lsa,  $u$  holda 3 - masala yechimga ega bo'lishi uchun  $\varphi_n = (\varphi(x), \sqrt{2} \sin \lambda_n x)_{L_2(0,1)} = 0$ ,  $n = k_1, \dots, k_s$  ortogonallik shartlarining bajarilishi zarur va yetarli bo'lib, masalaning yechimi

$$u(x, t) = \sqrt{2} \left[ \sum_{n=1}^{k_1-1} + \sum_{n=k_1+1}^{k_2-1} + \dots + \sum_{n=k_s+1}^{\infty} \right] u_n^\pm(t) \sin \lambda_n x + \sum_m C_m V_m^\pm(x, t),$$

$$V_m^\pm(x, t) = \begin{cases} t^{\gamma-1} E_{\alpha, \gamma}(-\lambda_m^4 t^\alpha) \sin \lambda_m x, & t > 0, \\ (\cos \lambda_m^2 t - \lambda_m^2 \sin \lambda_m^2 t) \sin \lambda_m x, & t < 0 \end{cases}$$

ko'rinishda aniqlanadi, bu yerda  $m = k_1, \dots, k_s$ ,  $C_m$  - ixtiyoriy o'zgarmas sonlar.

**8-teorema.** 7-teoremaning shartlari bajarilsin.  $U$  holda 3-masalaning yechimi uchun  $\|u(x, t)\|_{C(\overline{\Omega})} \leq C_1 \|\varphi(x)\|_{C[0,1]}$ ,  $\|u(x, t)\|_{L_2(\Omega)} \leq C_2 \|\varphi(x)\|_{L_2(0,1)}$  baholar o'rinli bo'ladi, bu yerda  $C_1, C_2$  - musbat o'zgarmas sonlar.

2.2-paragrafda  $\Omega$  sohada Kaputo operatorini o'z ichiga olgan aralash turdagi

$$f(x) = \begin{cases} u_{xxxx}(x, t) + {}_c D_{0t}^\alpha u(x, t) + d^2 u(x, t), & t > 0, \\ u_{xxxx}(x, t) + u_{tt}(x, t) + d^2 u(x, t), & t < 0 \end{cases} \quad (16)$$

tenglama uchun nolokal teskari masala o'rganilgan, bu yerda  $d$  - musbat haqiqiy son,  ${}_c D_{0t}^\alpha$ ,  $(0 < \alpha < 1)$  - (2) formula bilan aniqlangan Kaputo ma'nosidagi kasr tartibli hosila.

**4-masala.** Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi  $(u(x, t), f(x))$  funksiyalar juftligini topish talab etilsin:

1)  $u \in C_{x,t}^{3,\alpha}(\overline{\Omega}_1) \cap C_x^4(\Omega_1) \cap C_{x,t}^{3,1}(\overline{\Omega}_2) \cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega_2)$ ,  $f(x) \in C[0,1]$ ;

2)  $u(x, t), f(x)$  funksiyalar  $\Omega_1 \cup \Omega_2$  sohada (16) tenglamani qanoatlantirsin;

3)  $u(x, t)$  funksiya  $u(0, t) = 0$ ,  $u(1, t) = 0$ ,  $u_{xx}(0, t) = 0$ ,  $u_{xx}(1, t) = 0$ ,  $-a \leq t \leq b$ ,  $u(x, -a) = \varphi(x)$ ,  $u_t(x, -a) = {}_c D_{0t}^\alpha u(x, b) + \psi(x)$ ,  $0 \leq x \leq 1$  chegaraviy shartlarni va

(8) ulash shartlarini qanoatlantirsin, bu yerda  $\varphi(x)$  va  $\psi(x)$  berilgan funksiyalar,  $u \in C_t^\alpha(\Omega_1) \Leftrightarrow {}_C D_{0t}^\alpha u \in C(\Omega_1)$ .

Ushbu paragrafda quyidagi lemma va teoremlar isbotlangan:

**9-teorema.** Agar

$$\Delta_n(a,b) = (\sin \lambda_n^2 a) / \lambda_n^2 - \cos \lambda_n^2 a + E_\alpha(-\lambda_n^4 b^\alpha) \neq 0, \lambda_n^4 = d^2 + (\pi n)^4, n=1,2,\dots \quad (17)$$

shart o‘rinli bo‘lib, 4-masalaning yechimi mavjud bo‘lsa, u yagonadir.

**6-lemma.** 4-lemma shartlari o‘rinli bo‘lsin. U holda ixtiyoriy fiksirlangan  $b > 0$  va yetarlicha katta  $n$  lar uchun, shunday musbat  $B_0$  o‘zgarmas soni topiladiki,

$$|\Delta_n(a,b)| \geq B_0 > 0 \quad (18)$$

munosabat o‘rinli bo‘ladi.

**7-lemma.** (17) va (18) munosabatlar o‘rinli bo‘lsin. U holda barcha  $n \in N$  lar uchun  $|u_n(t)| \leq B_1 |\psi_n| / n^2 + |\varphi_n|$ ,  ${}_C D_{0t}^\alpha u_n(t) \leq B_2 |\psi_n|$ ,  $t \in [0,b]$ ,

$$|u_n(t)| \leq B_3 (|\varphi_n| + |\psi_n| / n^2), |u_n'(t)| \leq B_4 |\psi_n|, u_n''(t) \leq B_5 n^2 |\varphi_n|, t \in [-a,0],$$

$$|f_n| \leq B_6 (n^4 |\varphi_n| + n^2 |\psi_n|), t \in [-a,b]$$

munosabatlar o‘rinli bo‘ladi, bu yerda  $B_k, k = \overline{1,6}$  – musbat o‘zgarmas sonlar.

**10-teorema.** Aytaylik,  $\varphi(x)$  va  $\psi(x)$  funksiyalar uchun

$$\varphi^{IV}(x), \psi''(x) \in C[0,1], \varphi^V(x), \psi'''(x) \in L_2(0,1),$$

$$\varphi^{(2n)}(0) = 0, \varphi^{(2n)}(1) = 0, \psi^{(2\ell)}(0) = 0, \psi^{(2\ell)}(1) = 0, n = \overline{0,2}, \ell = \overline{0,1}$$

munosabatlar o‘rinli bo‘lib, (17) va (18) shartlar bajarilsin. U holda 4 - masala  $\Omega$  sohada yagona yechimga ega bo‘lib, bu yechim

$$u(x,t) = \begin{cases} \sqrt{2} \sum_{n=1}^{\infty} \left[ \frac{\psi_n}{\lambda_n^4 \Delta_n(a,b)} (E_\alpha(-\lambda_n^4 t^\alpha) - \cos \lambda_n^2 a - \lambda_n^2 \sin \lambda_n^2 a) + \varphi_n \right] \sin \pi n x, t > 0, \\ \sqrt{2} \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\psi_n [(\cos \lambda_n^2 t - \lambda_n^2 \sin \lambda_n^2 t - \cos \lambda_n^2 a - \lambda_n^2 \sin \lambda_n^2 a) + \varphi_n] \sin \pi n x}{\lambda_n^4 \Delta_n(a,b)}, t < 0, \\ f(x) = \sqrt{2} \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\varphi_n \lambda_n^4 \Delta_n(a,b) - \psi_n (\cos \lambda_n^2 a + \lambda_n^2 \sin \lambda_n^2 a)}{\Delta_n(a,b)} \sin \pi n x \end{cases}$$

qatorlar bilan aniqlanadi.

**11-teorema.** 10-teorema shartlari bajarilsin. U holda 4 - masalaning yechimi uchun

$$\|u(x,t)\|_{L_2} \leq B_7 (\|\psi\|_{L_2} + \|\varphi\|_{L_2}), \|u(x,t)\|_{C(\overline{\Omega})} \leq B_9 (\|\psi\|_{W_2^0} + \|\varphi\|_{W_2^2}),$$

$$\|f(x)\|_{L_2} \leq B_8 (\|\psi\|_{W_2^2} + \|\varphi\|_{W_2^4}), \|f(x)\|_{C[0,1]} \leq B_{10} (\|\psi\|_{W_2^3} + \|\varphi\|_{W_2^5})$$

baholar o‘rinli bo‘ladi, bu yerda  $B_i, i = \overline{7,10}$  – musbat o‘zgarmas sonlar.

2.3-paragrafda tekislikdagi  $\Omega$  sohada Kaputo kasr hosilasi qatnashgan ushbu uchinchi tartibli aralash turdagi

$$0 = \frac{\partial}{\partial x}(Lu) = \frac{\partial}{\partial x} \begin{cases} u_{xx}(x, y) - {}_c D_{0y}^\alpha u(x, y), x > 0, \\ u_{xx}(x, y) - u_{yy}(x, y), x < 0 \end{cases} \quad (19)$$

tenglama uchun chegaraviy masala tadqiq etilgan. Bunda  $\Omega$  soha tekislikdagi  $x > 0, y > 0$  da  $y=0, x=1, y=1$  to'g'ri chiziqlarning mos  $AB, BB_0, B_0A_0$  kesmalari bilan,  $x < 0, y > 0$  da esa (19) tenglamaning  $A(0,0), A_0(0,1)$  nuqtalaridan chiquvchi  $AC: x+y=0, A_0C: x-y=-1$  xarakteristikalari bilan chegaralangan soha bo'lib,  ${}_c D_{0t}^\alpha, (0 < \alpha < 1)$  – (2) formula bilan aniqlangan Kaputo ma'nosidagi kasr tartibli integro-differensial operatori.

**5-masala.**  $\bar{\Omega}$  sohada uzluksiz va quyida keltirilgan shartlarni qanoatlantiruvchi  $u(x, y)$  funksiyani topish talab qilinsin:

1)  $\Omega \setminus \{x=0\}$  sohada (19) tenglamaning regulyar yechimi bo'lsin;

2)  $u(x, y)$  funksiya

$$\begin{aligned} u|_{y=0} &= \varphi(x), \quad 0 \leq x \leq 1, \quad u|_{x=1} = f(y), \quad 0 \leq y \leq 1, \\ u|_{A_0C} &= \psi_1(y), \quad \frac{\partial u}{\partial n}|_{A_0C} = \psi_2(y), \quad \frac{1}{2} \leq y \leq 1, \quad \frac{\partial u}{\partial n}|_{AC} = \psi_3(y), \quad 0 \leq y \leq \frac{1}{2} \end{aligned}$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin, bu yerda  $\varphi(x), f(y), \psi_1(y), \psi_2(y), \psi_3(y)$  berilgan funksiyalar.

Ushbu paragrafda quyidagi lemma va teoremlar isbotlangan:

**12-teorema.** Aytaylik,  $\varphi(x), f(y), \psi_1(y), \psi_2(y)$  va  $\psi_3(y)$  funksiyalar

$$\begin{aligned} \varphi(x) &\in C^1[0,1], \quad f(y) \in C^1[0,1], \quad \psi_1(y) \in C^2[1/2,1], \quad \psi_2(y) \in C^1[1/2,1], \\ \psi_3(y) &\in C^1[0,1/2], \quad \varphi(0)=0, \quad \varphi(1)=f(0)=0, \quad \psi_2' = -\psi_3'(1/2) \end{aligned}$$

shartlarni qanoatlantirsin. U holda 5 - masalaning yechimi mavjud va yagonadir.

Teoremani isbotlashda ushbu

$$\tau''(y) - {}_c D_{0y}^\alpha \tau(y) = f(y), \quad \tau(0)=0, \quad \tau(1)=\psi_1(1) \quad (20)$$

Dirixle masalasi yechimi xossalaridan foydalanamiz, bunda  $\tau(y) = u(0, y), f(y)$  - berilgan uzluksiz funksiya.

**8-lemma.** Aytaylik,  $\tau(t) \in C^1[0,1] \cap C^2(0,1)$  funksiya  $(0,1)$  oraliqda (20) masalaga mos bir jinsli tenglamani qanoatlantirsin. U holda  $\tau(t)$  funksiya o'zining musbat maksimumi yoki manfiy minimumiga albatta  $[0,1]$  segmentning chegaraviy nuqtalarida, ya'ni  $t=0$  yoki  $t=1$  nuqtalarda erishadi.

**9-lemma.** (20) Dirixle masalasi bittadan ko'p yechimga ega emas.

Dissertatsiyaning “**To'rtinchi tartibli aralash turdagi nolokal tenglamalar uchun masalalar**” deb nomlangan uchinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo'lib, u  $\Omega = \{(x, t) : -1 < x < 1, -a < t < b\}, a, b \in R^+$  sohada Kaputo va Hilfer hosilalari

qatnashgan involyutsiyali aralash tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar o'rganishga bag'ishlangan.

$\Omega_1 = \Omega \cap (t > 0)$ ,  $\Omega_2 = \Omega \cap (t < 0)$  bo'lsin. 3.1-paragrafda  $\Omega$  sohada aralash turdagi nolokal

$$0 = \begin{cases} D^{\alpha,\gamma} u(x,t) + u_{xxxx}(x,t) - \varepsilon u_{xxxx}(-x,t) + d^2 u(x,t), & t > 0, \\ u_{tt}(x,t) + u_{xxxx}(x,t) - \varepsilon u_{xxxx}(-x,t) + d^2 u(x,t), & t < 0 \end{cases} \quad (21)$$

tenglama uchun quyidagi nolokal masala o'rganilgan, bu yerda  $\varepsilon$ ,  $d$  – berilgan haqiqiy sonlar,  $D^{\alpha,\gamma}$ , ( $0 < \alpha \leq \gamma \leq 1$ ) – (12) formula bilan aniqlangan kasr tartibli Hilfer operatori.

**6-masala.** *Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi  $u(x,t)$  funksiyani topish talab etilsin:*

- 1)  $t^{1-\gamma} u \in C_{x,t}^{3,0}(\bar{\Omega}_1)$ ,  $t^{1-\gamma} D^{\alpha,\gamma} u \in C(\bar{\Omega}_1)$ ,  $u_{xxxx} \in C(\Omega_1)$ ,  $u \in C_{x,t}^{3,1}(\bar{\Omega}_2) \cap C_{x,t}^{4,2}(\Omega_2)$ ;
- 2)  $\Omega_1 \cup \Omega_2$  sohada (21) tenglamani qanoatlantirsin;
